

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

«TASDIQLAYMAN»

Farg‘ona politexnika instituti rektori

_____ O‘.R.Salomov

“ _____ ” _____ 2023 yil

**06.01.10 - “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch
doktorantura (PhD) ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik
fani**

DASTURI va BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona – 2023 yil

Ushbu malakaviy imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

TUZUVCHILAR:

PhD. t.f.f.d. X.X.Turdikulov
g.m.f.n dotsent O.A.Qayumov
PhD. dotsent K.R.Xakimova
PhD. A.A.Marupov

Taqrizchilar:

- Niyozov Q.X. - “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy loyihalash instituti direktori, t.f.f.d., PhD.
- Mirzaxmedov R. - Davlat kadastrlar palatasi Farg‘ona viloyati boshqarma boshlig‘i.
- Ibragimov O.O. - Farg‘ona politexnika instituti, q.x.f.d., prof.

Malakaviy imtixon dasturi va baholash mezonlari Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilingan 2023-yil “30” sentyabr, bayon №2 ko‘ra muhokama etilgan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Farg‘ona politexnika institut Ilmiy Kengashining 2023-yil “_____”
_____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

Respublikamizda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning bosh maqsadi etib, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam islox, qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish kabilar belgilangan.¹ O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yil 16-iyunida “Oliy ta‘lim tizimidagi ustivor vazifalar”ga bag‘ishlangan videoselektorda xam to‘rta ustivor vazifani ko‘rsatib o‘tilgan. Ana shu vazifalarning uchinchi “Oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish”ga qaratilgan².

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali, oqilona va maqsadli foydalanishga qaratilgan qator chora-tadbirlar, jumladan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, “...tabiiy muhit davlat monitoringining elektron ma‘lumotlarini Yagona geoaxborot ma‘lumotlar bazasiga kiritib borish”³ yuzasidan muhim vazifalari belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5742-sonli va 2019 yilning 23 oktabridagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5853-sonli farmonlari hamda 2022 yil 14 yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-sonli qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, bu borada, ilg‘or geofazoviy texnologiyalardan, shuningdek, Yerni masofadan zondlash ma‘lumotlari va geografik axborot texnologiyalaridan foydalanib qishloq xo‘jaligi yerlarining yirik masshtabli raqamli kartalarini tuzishning asosiy texnologik jarayonlarini o‘zida mujassam etgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi yer tuzuvchi, shahar qurilish bo‘yicha geodesist-topograf, baholovchi, monitoring olib boruvchi, soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr mutaxassisi, aerogeodeziya mutaxassislari, topograf loyihachilarni xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlashdan iborat.

06.01.10 - “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha tanyach doktoranturaga kirish yuzasidan imtixon dasturi tuzishda yuqorida qayd etilgan talablar inobatga olingan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. PF-6097. <https://Lex.uz/docs/5073447>

² <https://president.uz/uz/lists/view/4424>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

Shuningdek, 06.01.10 - “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura, doktorantura xamda mustaqil izlanuvchilarning kirish imtihonlari dasturi kadastr sohasi bo‘yicha talab yuqori bo‘lgan, raqobatbardosh ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni va shu orqali O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu dasturning asosiy mazmuni oliy o‘quv yurtlarining 60722500 – Geodeziya, kartografiya va kadastr(funksiyalari bo‘yicha) va 60722800 – Kadastr (ko‘chmas mulk kadastr) bakalavriatura yo‘nalishlari hamda 70722502 – Geodeziya va kartografiya (funksiyalar bo‘yicha) 70722503 – Geodeziya, kartografiya va kadastr (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi uchun tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja hamda fan dasturlari asosida tayyorlangan. Unda Davlat kadastr asoslari, Yer resurslarini boshqarish, Yer kadastr asoslari, Kartalarini loyihalash va tuzish, Geoinformatika va fazoviy tahlil, Yer huquqi va kadastr, Yer tuzishni loyihalash, Shahar kadastr oid nazariy bilimlar, tushunchalar, asosiy qoidalar hamda amaliy ko‘nikmalar e‘tiborga olingan. Bu esa, talabgorlarning yer tuzish, davlat kadastr asoslari, monitoring, yer resurslarini boshqarish, yer tuzishni loyihalash xamda yer kadastr asoslari borasidagi bilimlarini xam baholash imkonini beradi.

Dastur 06.01.10 - “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantur xamda mustaqil izlanuvchilarning kirish imtihonlari kirish yuzasidan talabgorlarning imtihonga tayyorlanish va uni topshirish uchun mo‘ljallangan.

I BO'LIM. YER TUZISH VA YER RESURSLARINI BOSHQARISH

1-mavzu. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarishning nazariy asoslari

Yer tuzish va yer resurslarini boshqarishning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Ikki yoqlama yozuvning keng tarqalishi. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarish ishlarini tashkil etish va rejalashtirish tushunchasi. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarish ishlarini tashkil etish va rejalashtirishning predmeti, usullari va tamoyillari. Yer tuzish tizimi va bu tizimda yer tuzish ishlarini tashkil etish va rejalashtirishning o'ri. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarish xizmati to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

2-mavzu. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarish tushunchasi, maqsadi va yo'nalishlari

Yer resurslarini boshqarish. Yer resurslarini boshqarishda yo'nalishlari. Yerdan foydalanishni boshqarish vazifalari. Yer tuzish xizmatining rivojlanishi va takomillashishi. Yer tuzish bo'yicha loyixa tashkilotlari. Yer tuzish xarakatlari, ishlab chiqarish jarayoni va yer tuzish bo'yicha loyixa tashkilotlari bajaradigan ishlar tarkibi. Ishlab chiqarishni tarkibiy qismlarga bo'linishining asosiy xususiyatlari. Yer tuzish bo'yicha loyixa va qidiruv ishlari bosqichlari. Yer tuzish bo'yicha loyixa tashkilotlari bajaradigan ishlar tarkibi.

3-mavzu. Yer fondi yer resurslarini boshqarish obyekti sifatida

Mamlakatning yer fondi boshqarish obyekti sifatida. Mamlakat yer fondidan foydalanish tavsifi. Yer fondi toifalari. Milliy xo'jalik tizimida yer taqsimoti masalalari. Yer resurslarini boshqarishning xalqaro modellarini vujudga kelishi va zaruriyati. Matematik modellashtirish va uning ahamiyati. Yevropa modeli va uning mohiyati. Janubiy-Amerika modelining o'ziga xos xususiyatlari. Yer tuzish va yer resurslarini boshqarishning xalqaro modellarini aerogeodeziya xalqaro standartlarini shakllanishiga ta'siri.

4-mavzu. Yer resurslarini boshqarish usullari va mexanizmlari

Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish usullari. Yer resurslarini boshqarish mexanizmlari. Yer kadastrini yuritish mexanizmi, uning axborotlaridan foydalanish. Yer tuzishda rejalash asoslari va rejalar tizimi. Rejalarni tuzish uslublari, tamoyillari va mohiyati. Rejalashning vazifalari va ishlar rejaları tizimi. Loyixa tashkilotlarida rejalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirishning yangi tizimi.

5-mavzu. Respublikada yer resurslarini boshqarish uslublari

Davlat boshqaruvi. Mahalliy boshqaruv. Xo'jalik boshqaruvi. Yer resurslarini boshqarish bo'yicha davlat organlari tizimi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini Davlat qo'mitasining tarkibi va vazifalari. Qo'mitaning tarkibi, vazifalari va faoliyati. Yer tuzish xizmatida mexnatni tashkil

qilish shakllari va uslublari. Viloyat, shaxar va tuman yer tuzish xizmatlari. Yer resurslari va davlat kadastr boshqar-masi tarkibi va vazifalari. Boshqarmada mexnatni tashkil qilish shakllari va uslublari. Tuman (shaxar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlarining tarkibi va vazifalari. Tuman (shaxar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘lim boshlig‘ining ishini rejalashtirish va tashkil etish.

6-mavzu. Yer tuzishda mexnatni me‘yorlash

Mexnatni meyorlashning mazmuni va moxiyati. Yer tuzishda mexnatni meyorlashning rivojlanishi va takomillashishi. Yer tuzish ishlarida mexnatni meyorlashning xususiyatlari. Ish vaqti sarfi klassifikatsiyasi va uni o‘rganish usullari. Ish meyorlarini belgilash usullari. Mexnat va vaqt bo‘yicha meyorlarni ishlab chiqishning mazmuni va tartibi. Yer tuzish bo‘yicha loyixa va qidiruv ishlarining xarakatdagi namunaviy meyorlarining tavsifi va ulardan foydalanish.

7-mavzu. Yer resurslarini boshqarishda davlat yer nazorati

Yer resurslarini boshqarishga oid qonunlar, me‘yoriy xujjatlar tizimi va ularning ijrosini tahlili. Yer resurslarini boshqarishda nazorat qiluvchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vakolatlari. Yer toifalarining huquqiy holatini belgilash.

8-mavzu. Yer resurslarini boshqarishda nazorat uslublari va bosqichlari

Yerdan foydalanishning boshqarish usullari. Boshqarish tizimini vujudga keltirish vaqtida axborot oqimlarining kamchiliklar.

9-mavzu. Yer resurslarini boshqarishda axborot ta‘minoti tushunchasi va mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonalarini. Quyi daraja. O‘rta daraja. Respublika darajasi. Yer fondi toifalari. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilardan va ijarachilardan huquqiy holatda, yer uchastkalarining tarkibida va yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash. Naturada tekshirilgandan keyin joriy o‘zgarishlarni yer kadastr axborotiga kiritish. Yer-kadastr daftarini va navbatchi yer-kadastr xaritasini tashkil qilish va yurish. Tuman (shahar) yer resurslarining mavjudligi va sifat bo‘yicha holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab borish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalariga yerlarning miqdori va ulardan foydalanish to‘g‘risida hisobot taqdim etish.

10-mavzu. Umumiy xisobotlarni tuzish va takdim etish

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr agentliklari, tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastr joylardagi bo‘limlarining yer kadastrini yuritishga doir faoliyatini muvofiqlashtirish. Tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlarining hisobotlarini umumlashtirish, yer uchastkasiga egalik huquqi sub‘yektlari, mintaqadagi yer resurslari miqdori, sifati va ularni baholashga doir ma‘lumotlar bankini yaratish.

Respublika yer ma'lumotlari yagona bankini yaratishda qatnashish. Materiallardan foydalanishni nazorat qilish. Inventar va raqamli xarilarni loyihalash. Malumotlar banki materiallarini hisobga olish tizimlari.

1. II BO'LIM. YER KADASTR ASOSLARI.

Davlat yer kadastrini yurituvchi organlar tizimi va ularning huquqiy vakolatlari

O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi qonuni mazmuni va mohiyati. Davlat yer kadastrini yuritish tizimi. Davlat yer kadastrini hujjatlari. Davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi boshqaruv tizimlari.

Davlat yer kadastrlarining turlari, tamoyillari

Birlamchi. Joriy. Yer kadastrini yuritish tamoyillari. Tuproq tiplari, mexanik tarkibi, sho'rlanishi, yuvilish darajasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va yer resurslari va davlat kadastrini boshqarmalari: tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastrini bo'limlarining yer kadastrini yuritishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish; tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastrini bo'limlarining hisobotlarini umumlash; yer uchastkasiga egalik huquqi sub'yektlari, mintaqadagi yer resurslari miqdori, sifati va ularni baholashga doir ma'lumotlar bankini yaratish; Respublika yer ma'lumotlari yagona bankini yaratishda qatnashish; Tuproq bonitirovkasi. Yerni iqtisodiy baholash. Yer uchastkalarini ro'yhatga olish.

Davlat yer kadastrini bo'limlari

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasining tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko'chmas mulk kadastrini davlat korxonalar; mulkdorlardan, yer egaligidan, yerdan foydalanuvchilardan va ijarachilardan huquqiy holatda, yer uchastkalarining tarkibida va yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash; yer-kadastrini daftari va navbatchi yer-kadastrini xaritasini tashkil qilish va yurish; tuman (shahar) yer resurslarining mavjudligi va sifat bo'yicha holati to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab borish;

Yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va bekor qilish

Yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va xususiylashtirish. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish. Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun yer uchastkalari berish yoki realizatsiya qilish. Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun berish tartibi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinishi

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazorat

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari va davlat nazoratini amalga oshirish tartibi. Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Yer uchun

to'lovlar.

Aholi punktlari chegaralarini aniqlash va belgilash

Axoli punktlari chegaralarini aniqlash. Axoli punktlari chegaralarini belgilash va rasmiylashtirish.

Yer uchastkalari xatlovi

Yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish tarkibi va tartibi. Yer uchastkalari xatlovi natijalarini rasmiylashtirish tarkibi va tartibi. Axoli punkti xududidagi yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish. Axoli punktidagi yer uchastkalarini yalpi xatlovdan o'tkazish. Xatlov natijalarini umumlashtirish, ko'rib chiqish, kelishish va tasdiqlash.

Yer uchastkasining kadastr s'yomkasi

Kadastr s'yomkasini bajarishdagi topo-geodezik ishlar tarkibi, tartibi va ularga bo'lgan talablar. Kadastr xizmati ishlarining moliyaviy xujjatlari

Yer uchastkasining kadastr yig'majildi

Kadastr yig'majildi tarkibi va uni rasmiylashtirish tartibi. Yer uchastkasining kadastr ma'lumotlarini tayyorlash. Kadastr yig'majildini rasmiylashtirish va o'zgartirishlar kiritish.

Yer uchastkasiga va unda joylashgan bino-inshootlarga kadastr raqamini berish

Hududlarni kadastr bo'yicha bo'lish tarkibi va qoidalari. Yer uchastkasi va unda joylashgan bino-inshootlarning kadastr raqamini shakllantirish tartibi. Axoli punktlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasi va unda joylashgan bino-inshootlarga kadastr raqamini berish.

Yer uchastkasini davlat ro'yxatidan o'tkazish

Yer uchastkasini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi. Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish xususiyatlari. Ko'p yillik ekinlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish xususiyatlari. Davlat reestridan ko'chirmalarni tayyorlash tartibi.

Yer uchastkalarining xisobini yaratish va yuritish

Yer hisobining turlari. Yerlarning miqdor ko'rsatgichlarini hisobga olish tartibi. Yerlarning sifat ko'rsatgichlarini hisobga olish tartibi. Yerlarning qiymat ko'rsatgichlarini hisobga olish tartibi. Yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobot. Aholi punktlari yer hisoboti(balansi)ni tuzish.

Davlat yer kadastr axborot tizimi va ularni davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish

Davlat yer kadastriga doir axborot tizimi. Davlat yer kadastrining geografik axborot tizimi. Davlat yer kadastr tematik qatlamlari ma'lumotlarini shakllantirish va taqdim etish. Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratishning huquqiy asoslari. Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibi, maqsadi, vazifalari va ob'ektlari. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasida davlat boshqaruvi. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish

Navbatchi yer-kadastr xaritasi

Navbatchi yer-kadastr xaritalar tizimi. Xududning navbatchi y yer- kadastr xaritasini yaratish va yuritish.

III BO'LIM. DAVLAT KADASTRLARI TIZIMIDA HUQUQIY MUNOSABATLAR

Davlat kadastrlari tizimida huquqiy munosabatlar tushunchasi

Davlat kadastrlari tizimida huquqiy munosabatlar tushunchasi va normativ huquqiy hujjatlari. Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquq tizimi, turlari va prinsiplari. Davlat organlarining davlat kadastrlarini yuritishdagi tizimi, vazifalari va vakolatlari. Davlatning ko'chmas mulklarga egalik qilishi va boshqaruvi.

Davlat kadastrlari ob'ektlari joylashgan yer uchastkalari bilan bog'liq shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

O'zbekiston Respublikasida yer huquqining rivojlanishi. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqini olish asoslari. Yer uchastkasiga bo'lgan mulkiy xuquq, bitim turlari. Yer uchastkasiga bo'lgan cheklanish, ximoya xududi xamda huquqni tasdiqlovchi hujjatlar va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Yer egasi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdorining xuquqlari, majburiyatlari va kafolatlari.

Uy-joy bilan bog'liq shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

Uy-joyni bitimlar asosida qo'lga kiritish va boshqa shaxsga o'tkazish. Hadya shartnomasi. Yakka tartibda uy-joy qurish va davlat uy-joyini xususiylashtirish hamda meros huquqi asosida mulk huquqining vujudga kelishi. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida uy-joyga mulk huquqini qo'lga kiritish.

Ko'chmas mulk ob'ektlari kadastrlariga bo'lgan mulkiy huquq munosabatlar

Shaxarsozlik infrastrukturasi xamda noturar joy binolar va inshootlari, madaniy meros, gidrotexnika inshootlari va kartografik-geodezik ob'ektlariga bo'lgan mulk, mulk huquqi va ashyoviy huquq tushunchalari, mulkning shakllari. Mulk huquqining sub'ektlari va ob'ektlari. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari.

Chizikli inshootlar kadastrlariga bo'lgan mulkiy huquq munosabatlar

Chizikli inshootlar kadastrlari turlariga kiruvchi avtomobil va temir yo'llar, aloqa va energetika ob'ektlari xamda etkazib berish quvurlari va suv ob'ektlariga bo'lgan mulk,

mulk huquqi va ashyoviy huquq tushunchalari, mulkning shakllari. Mulk huquqining sub'ektlari va ob'ektlari. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari.

Tabiiy resurslar kadastrlariga bo'lgan mulkiy huquq munosabatlar

Tabiiy resurslar kadastrlari turlariga kiruvchi konlar va foydali qazimalar, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari, muayyan hududlar ob'ektlari bo'lgan mulk, mulk huquqi va ashyoviy huquq tushunchalari, mulkning shakllari. Mulk huquqining sub'ektlari va ob'ektlari. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari.

Tabiiy hududlar kadastrlariga bo'lgan mulkiy huquq munosabatlar

Tabiiy hududlar kadastrlari turlariga kiruvchi muxofaza etiladigan hududlar, tabiiy va texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalardagi ob'ektlarining bo'lgan mulk, mulk huquqi va ashyoviy huquq tushunchalari, mulkning shakllari. Mulk huquqining sub'ektlari va ob'ektlari. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari.

Ko'chmas mulk ob'ektlari kadastrlariga bo'lgan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

Shaxarsozlik infrastrukturasi xamda noturar joy binolar va inshootlari, madaniy meros, gidrotexnika inshootlari va kartografik-geodezik ob'ektlarini qurish va bitimlar asosida qo'lga kiritish hamda boshqa shaxsga o'tkazish. Hadya shartnomasi. Davlat tasarrufidagi ko'chmas mulk ob'ektlarini xususiylashtirish hamda meros huquqi asosida mulk huquqining vujudga kelishi. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida mulk huquqini qo'lga kiritish.

Chiziqli inshootlar kadastrlariga bo'lgan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

Chiziqli inshootlar kadastrlari turlariga kiruvchi avtomobil va temir yo'llar, aloqa va energetika ob'ektlari xamda etkazib berish quvurlari va suv ob'ektlarini qurish va bitimlar asosida qo'lga kiritish hamda boshqa shaxsga o'tkazish. Hadya shartnomasi. Davlat tasarrufidagi chiziqli inshootlar ob'ektlarini xususiylashtirish hamda meros huquqi asosida mulk huquqining vujudga kelishi. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida mulk huquqini qo'lga kiritish.

Tabiiy resurslar kadastrlariga bo'lgan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

Konlar va foydali qazimalar, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari, muayyan hududlar kadastrlari ob'ektlarini bitimlar asosida qo'lga kiritish hamda boshqa shaxsga o'tkazish. Hadya shartnomasi. Davlat tasarrufidagi tabiiy resurslar ob'ektlarini xususiylashtirish hamda meros huquqi asosida mulk huquqining vujudga kelishi. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida mulk huquqini qo'lga kiritish.

Tabiiy hududlar kadastrlariga bo'lgan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar

Muxofaza etiladigan hududlar, tabiiy va texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar kadastrlari ob'ektlarini bitimlar asosida qo'lga kiritish hamda boshqa shaxsga o'tkazish. Hadya shartnomasi. Davlat tasarrufidagi ko'chmas mulk ob'ektlarini xususiylashtirish hamda meros huquqi asosida mulk huquqining vujudga kelishi. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida mulk huquqini qo'lga kiritish.

Davlat kadastrlari ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqining himoya qilinishi

Mulk huquqi bilan bog'liq qonuniy kafolatlar. Ko'chmas mulkka oid mulk huquqini sud orqali himoya qilish tartibi. Ko'chmas mulk va shartnoma huquqiga oid asosiy da'vo talablari. Mulk huquqiga oid nizoli holatlar bo'yicha sudga murojaat qilish. Mulk huquqini belgilash (Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida: Egalik huquqini va servitutni belgilash va huquq buzarlilklarni bartaraf etish. Umumiy birgalikdagi mulk deb topish va ulushlarni belgilash hamda foydalanish tartibini belgilash. Ulushli mulkdagi mol-mulkni taqsimlash. Mol-mulkni ro'yxatdan chiqarish va qiymatini, zararni, xarajatlarni undirish hamda o'ndiruvni garovdagi mulkka qaratish. SHartnomani o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish)

Davlat kadastrlari ob'ektlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati

Davlat kadastrlari ob'ektlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi. Muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari xamda qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik va to'lovlar.

Shahar, qishloq aholi punktlaridagi yer va bino - inshootlarga bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yxatiga olish tizimi

Yer va bino-inshootlarga bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi. Axborot tizimi kompleksidan foydalanib «bir oyna» prinsipi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tkazish. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tarkibi va talablari. Bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tarkibi va talablari. Ipoteka va binolar va inshootlarga bo'lgan ashyoviy huquqlar ipotekasi to'g'risidagi shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Shahar, qishloq aholi punktlarida yer hisobi

Shahar, qishloq aholi punktlarida yer hisobini yuritish tartib va talablari. Shahar, qishloq aholi punktlaridagi yerlarning sifat hisobi. Shahar, qishloq aholi punktlaridagi erlarning miqdor hisobi. Shahar, qishloq aholi punktlarida yer hisobotini (balansini) tuzish.

Shahar, qishloq aholi punktlaridagi bino- inshootlar hisobi

Shahar, qishloq aholi punktlaridagi bino- inshootlar hisobini yuritish tartib va talablari. Shahar, qishloq aholi punktlaridagi bino- inshootlarning sifat hisobi. Shahar, qishloq aholi punktlaridagi bino- inshootlarning miqdor hisobi. Shahar, qishloq aholi punktlaridagi bino- inshootlarni guruxlarga bo'lish. Shahar, qishloq aholi punktlarida bino- inshootlar hisobotini (balansini) tuzish.

Yer va bino - inshootlar xisobining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish

Yer va bino – inshootlarning atributiv ma'lumotlar to'plamini yaratish. Yer va bino – inshootlarga bo'lgan huquqlarni va ma'lumotlarni “Ko'chmas mulk S” dasturi yordamida DKYAT ma'lumotlari bazasiga online tarzda kiritish. Yer va bino – inshootlarga bo'lgan huquqlarni va ma'lumotlarni “Ko'chmas mulk 3.1 S” dasturi yordamida DKYAT ma'lumotlari bazasidan online tarzda qidirish. Yer va bino – inshootlar tematik qatlamlari ma'lumotlarini shakllantirish va taqdim etish. Yer va bino – inshootlarni shahar, qishloq aholi punktlarining navbatchi yer- kadastr xaritasida tasvirlash.

IV BO'LIM. DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMI VA MA'LUMOTLAR INTEGRATSIYASI

Davlat kadastrlari yagona tizimini shakllantirish va yuritish

Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratishning huquqiy asoslari. Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibi, maqsadi, vazifalari va ob'ektlari. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasida davlat boshqaruvi. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

Davlat kadastrlari ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Davlat kadastrlari ob'ektlarining kadastr hujjatlari. Kadastr ob'ektlarini xatlov qilish, baholash, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga olish.

Geografik axborot tizimining bazaviy geodezik-kartografik asoslari.

Geografik axborot tizimining bazaviy geodezik asoslari va ularga bo'lgan talablar xamda geofazoviy ma'lumotlarni yaratish. Geografik axborot tizimining bazaviy kartografik asoslari va ularga bo'lgan talablar hamda kartografik ma'lumotlarni yaratish.

Davlat kadastrlari yagona tizimining geografik axborot tizimi(DKYAT GAT)

DKYAT GATning maqsadi, vazifalari, yuritish prinsiplari va ularga qo'yiladigan talablari. DKYAT GAT ma'lumotlari, tematik qatlamlari tarkibi va ularga bo'lgan talablar.

Geografik axborot tizimini va ma'lumotlar integratsiyasini yaratishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlar

ArcGIS dasturiy ta'minoti. ArcGIS dasturiy ta'minotida geografik axborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarini va integratsiyasini yaratish.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari va integratsiyasini yaratish asoslari

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari va integratsiyasini yaratishning huquqiy asoslari. Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarini taqdim etuvchi vakolatli organlar va muddatlari. DKYAT GATga taqdim etiladigan ma'lumotlarning tarkibi va mazmuni.

Davlat kadastrlari ma'lumotlari va yagona geoaxborot portalini yaratish

Hududning fazoviy ma'lumotlarni shakllantirish. Hududning geografik axborot-tahliliy tizimi va geoportalini yaratish.

Raqamli yer- kadastr xaritasini geoaxborot tizimi bilan integratsiyasini

ta'minlash

Raqamli yer-kadastr xartitasiga tegishli geofazoviy ob'ektlar ma'lumotlarini kiritish. Raqamli yer-kadastr xartitasini geoaxborot tizimi bilan integratsiyalashtirishni xisobga olgan xolda shakllantirish.

Davlat kadastrlari geografik axborot tizimi ma'lumotlari integratsiyasini ta'minlash

Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini, ma'lumotlar bazalarini va boshqa axborot manbalarini xudud kadastr xizmatlarining geografik axborot tizimi(geoportali) bilan integratsiyasini ta'minlash. Hudud kadastr xizmatlari va idoralararo elektron hamkorligida geografik axborot-tahliliy tizimi ma'lumotlari integratsiyasini ta'minlash

V BO'LIM. SUN'IY YO'LDOSH TEXNOLOGIYALARI

Sun'iy yo'ldosh GPS navigatsiya tizimlari

Sun'iy yo'ldosh geodeziya o'lchovlari GPS navigatsiya tizimlari (Global Positioning System, SSHA). GLONASS (Global navigatsiya sun'iy yo'ldosh tizimi) sun'iy yo'ldosh signallari bilan ishlaydigan asbob-uskunalar.

Sun'iy yo'ldosh GPS navigatsiya tizimi ish jarayoni

GPS (Global navigatsiya tizimi) tizim ishlash prinsiplari va sxemasi. Sun'iy yo'ldosh orqali joyning koordinatalarini aniqlash. Sun'iy yo'ldosh geodeziya uskunalarining turli rejimlarda ishlash imkoniyatlari. O'lchash usullari va turlari.

Uchuvchisiz uchish apparatlari

Uchuvchisiz uchish apparatlar turlari va qurilmalari. Uchuvchisiz uchish apparatlarini qo'llanish soxalari va kadastr s'yomkasidagi axamiyati. Uchuvchisiz uchish apparatlar xususiyatlari, ishlash prinsiplari va dasturlari.

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yaratishda sun'iy yo'ldosh texnologiyasini qo'llash

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yaratish va ulardan foydalanishda "Sun'iy yo'ldosh texnologiyasi"ni qo'llash shartlari. Markaziy axborot analitik markazlarida uskunalarining joylashishi. Davlat geodezik to'rlarini modernizatsiya qilishda er usti sun'iy yo'ldoshli geodezik to'rlari obektlarning joylashgan o'rni. Davlat koordinatasi SK-42 dan geodezik koordinata WGS-84 ga o'tkazish parametrlarini aniqlash dasturiy ta'minoti. "Sun'iy yo'ldosh texnologiyasi" yordamida hududning **raqamli kadastr xartitasini yaratish va rasmiylashtirish.**

VI BO'LIM. GEOINFORMATIKA VA FAZOVIY TAHLIL

Geografik axborot tizimlar qisqacha ta'rifi

Raqamli geografik axborotning xususiyatlari. Geografik axborotni to'playdigan va u bilan ishlaydigan texnologiyalar.

Geaxborot tizimining muhiti va tuzilishi

Geografik axborot tizimini barpo etuvchilar: kompyuter ishlatadigan dasturlar, texnikaviy vositalar, fazoviy tahlilni ta'minlaydigan jarayon. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi.

Geografik ma'lumotlar bazasi

Ma'lumotlar bazasining tizimi va modullar. Ma'lumotlarni boshkarish tizim, vazifalari. Ma'lumotlar bazalarning turlari va bazaning ichidagi ma'lumotlarni modellashtirish uslublari.

Ma'lumotlar modellari

Kompyuterda ma'lumotlarni saqlash uchun bir necha ma'lumotlar modellari. Vektorli ma'lumotlar modeli. Nuqta, chiziq va poligon tushunchalari. Arklar usuli, topologiya tuzimlasi. Maydonli ob'ektlarni ko'rsatish uchun "betartib uchburchakli to'r" (TIN) g'oyasi. Ma'lumotlar vektorli strukturasi.

Fazoviy ma'lumotlar bazalarining aniqligi

Ma'lumotlarni aniqligini izohlaydigan standartlar: joylashish aniqligi, atributlar aniqligi, mantiqiy mosligi, to'liqligi, yaratish jarayonlari.

Xaritalarni raqamli tarzga aylantirish uslubiyoti

Qog'ozda chop etilgan xaritani raqamli tarzga aylantirish texnikaviy usullar, ma'lumotlar fizikaviy strukturasi va mantiqiy tuzilishi. Digitayzer va skanerdan foydalanish, digitayzerni ishlatish yo'li va muammolar.

Raqamli ma'lumotlarni tahrir qilish

Ma'lumotlarni tekshirish. Topologiya. Raqamli ma'lumotlarni tahrir qilish. Atributlar jadvallarini tuzish va to'ldirish. Ma'lumotlar bazasi va uni ob'ektga bog'lash.

Rastrli geografik axborot tizimining ko'rsatkichlari

Qatlamning ko'rsatkichlari: echimligi, orientirovka, zonalar. Rastrli geografik axborot tizimi orqali vazifalarni echish yo'llari. Bajariladigan ishlar. Rastrli geografik axborot tizimning imkoniyatlari. Rastrli geografik axborot tizimida yangi qatlamlarni yaratish usullari. Qaytadan raqamlash orqali uyaga yangi ko'rsatkich belgilash usuli. Qatlamlarni ustma-o'st tushirish natijasida yangi qatlam yaratish usuli. Yer yuzidagi ob'ekt va hodisalar o'zgarish ana'nasini tekshirish.

Xaritalarning legendasini, shartli belgilarini, yozuvlarini yaratish. Yangi shartli belgilarni tuzish. Yozuvlarning formatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish. Kartografik dizayn.

06.01.10 - "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik fanidan davog'arlar bilimini baholash mezonlari

Tayanch doktorantura(phd)ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik" fani bo'yicha da'vog'arlar bilimini baholash 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich yozma-og'zaki suhbat ko'rinishida bo'lib da'vog'arning

bilimi 50 ball bilan baholanadi. Ikkinchi bosqich yozma ish ko‘rinishida bo‘lib unda ham da‘vogarning bilimi 50 ball doirasida baholanadi. Da‘vogarlar tomonidan mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash va baholash uchun 06.01.10 - “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik fani dasturida nazarda tutilgan mavzular kiritilgan.

Yozma – og‘zaki suhbatning baholash mezonlari

Tayanch doktorantura(PhD)ga kiruvchilarning suhbat bo‘yicha savollarga bergan yozma-og‘zaki javoblarni baholashda ularning fanni medologiyasi, uslubi, predmeti, rivojlanish tarixi, tadqiqot yo‘nalishi, buxgalteriya hisobining nazariy-amaliy asoslari, yer tuzish, kadastr va yer monitoringi hisobining obyektlarini hisobga olish va ularni takomillashtirish, halqaro standartlar bilan milliy standartlar uyg‘unligi, korporativ mulk munosabatlari sharoitida yer kadastr va yer monitoringini tashkil qilish, yer tuzishning nazariy-amaliy asoslari, amaliy monitoring, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi holati va muvofiqligi, raqamli yer-kadastr xaritasiga tegishli geofazoviy ob‘ektlar ma‘lumotlari hamda integratsiyasi shakllantirilishi, davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini, ma‘lumotlar bazalarini va boshqa axborot manbalarini xudud kadastr xizmatlarining geografik axborot tizimi(geoportali) bilan integratsiyasini ta‘minlashi, hudud kadastr xizmatlari va idoralararo elektron hamkorligida geografik axborot-tahliliy tizimi ma‘lumotlari integratsiyasini ta‘minlash tahlili kabilarni bilish qobiliyati aniqlanadi. Imtihon biletlaridagi har bir savolni javobi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Bayon qilingan materialning to‘laligi va mazmunliligi.
2. Berilgan javobni imtihon biletidagi savolga mosligi.
3. Berilgan javobning mantiqan ketma-ketligi va lo‘ndaligi.
4. Ilmiy-uslubiy tilda bayon qilinish darajasi, aniq ta‘riflar va atamalardan foydalanilishi.
5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyot bilan bog‘lay olishi va amaliy ilmiy – amaliy ahamiyatini tushuna olish qobiliyatini mavjudliligi.
6. Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini, ma‘lumotlar bazalarini va boshqa axborot manbalarini xudud kadastr xizmatlarining geografik axborot tizimi (geoportali) bilan integratsiyasini ta‘minlash. Hudud kadastr xizmatlari va idoralararo elektron hamkorligida geografik axborot-tahliliy tizimi ma‘lumotlari integratsiyasini ta‘minlash tahlilning o‘rni va ahamiyatini tushunish darajasi.
7. Ilm Fan borasidagi Davlat siyosati va xuquqiy me‘yoriy xujjatlarni tushuna olish darajasini mavjudligi.
8. O‘z fikrini bayon qila olishi, mustaqil fikrlashi, bunda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondoshilganligi.

Suhbat bo‘yicha yozma-og‘zaki javoblarni baholash unga qo‘yilgan yuqoridagi talablardan kelib chiqib, quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi barcha savollarga yuqoridagi talablarga to‘la javob bergani holda, unga fan uchun ajratilgan umumiy ballning 43 – 50gacha miqdorda ball qo‘yiladi.
 - Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi barcha savollarga yuqoridagi talablarga to‘la javob berishga harakat qilgan bo‘lsa, unga umumiy ballning 35 -42 ball qo‘yiladi.
 - Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi savollar mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bergan bo‘lsa, lekin ular bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni bermagan va bayonda mantiqiy yaxlitlikka erishmagan bo‘lsa, umumiy ballning 28 – 34 ball qo‘yiladi.
- Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi savollar mohiyatini ocha olmagan va unga izoh bermagan bo‘lsa umumiy ballning 0 – 27 ball qo‘yiladi va talabgor ijobiy baholanmagan bo‘ladi.

Yozma ish bo‘yicha baholash mezonlari:

Da’vogarlarning bilimni yozma ish ko‘rinishda baholash uchun 3ta savoldan iborat ko‘p variantli biletlar tuziladi. Har bir savol uchun ballar qo‘yiladi. Birinchi va ikkinchi savol uchun javoblarni 15 ball, uchinchi savol uchun javoblarni 20 ball bilan baholash ko‘zda tutilgan.

Yozma ish bo‘yicha da’vogarlarning bilimlarini baholash mezonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

5 (A‘lo)	“Yozma ish” variantlarida qo‘yilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo‘lsa 43 – 50 gacha miqdorda ball qo‘yiladi.
4 (Yaxshi)	Qo‘yilgan savollarga to‘liq javob berishga harakat qilgan, nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog‘liq tushunchalarni, hamda ta’sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan yoki bildirilgan fikrlarni va masalani yechimini to‘la asoslay olmagan holda 35 -42 ball qo‘yiladi.
3 (Qoniqarli)	Da’vogar qo‘yilgan savollar mohiyatini yuzaki(yoki qisman) ochib bergan va masalani yechishga urinish qilgan bo‘lsa, lekin u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar xaqida to‘liq ma’lumotni yoritmagan bo‘lsa, shuningdek fikr-muloxazalar va xulosalar bayon etilmagan bo‘lsa 28 – 34 ball qo‘yiladi.
Qoniqarsiz	Da’vogar savollarga va masalaga yechim topmagan va ularga izox bermagan bo‘lsa 0 – 27 ball qo‘yiladi

Fan bo'yicha umumiy bahoni aniqlash tartibi.

Baxo	Da'vogarning bilimi darajasi
A'lo	Yozma-og'zaki suhbat va Yozma ishda ko'zda tutilgan ballarni yig'indisini asosida aniqlanadi. To'plangan ballar 86-100 ballni tashqil qilganda qo'yiladi.
Yaxshi	Yozma-og'zaki suhbat va Yozma ishda ko'zda tutilgan ballarni yig'indisini asosida aniqlanadi. To'plangan ballar 71-86 ballni tashqil qilganda qo'yiladi.
Qoniqarli	Yozma-og'zaki suhbat va Yozma ishda ko'zda tutilgan ballarni yig'indisini asosida aniqlanadi. To'plangan ballar 55-70 ballni tashqil qilganda qo'yiladi.
Qoniqarsiz	Yozma-og'zaki suhbat va Yozma ishda ko'zda tutilgan ballarni yig'indisini asosida aniqlanadi. To'plangan ballar 0-54 ballni tashqil qilganda qo'yiladi.

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.:O'zbekiston, 2014.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Yer kodeksi”
5. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagi “Davlat yer kadastri to'g'risida”gi qonuni
6. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonuni
7. O'zbekiston Respublikasining 2006-yilning 4-oktyabridagi «Ipoteka to'g'risida» gi Qonuni
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2017-yil 8-fevral.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6061-sonli farmoni
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi «Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5708-son Farmoni (qo'shimcha va o'zgartirish).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish

- va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3698-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2018 y., 07/18/3698/1178-son.
 15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4819-son qarori
 16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-sonli qarori.
 17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 278-son qarori.
 18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 31-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to'g'risida"gi 543 -son qarori.
 19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi "Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi [Nizomni tasdiqlash haqida](#)" gi 66-sonli qarori.
 20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-avgustdagi "2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 251-son qarori.
 21. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining 2014-yil 12-sentyabrdagi "Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to'g'risidagi **Nizomni tasdiqlash xaqida**"gi 12-sonli [qarori](#).
 22. Yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. T.; 2000-y.
 23. Yer uchastklarini tashkil etish topografik geodezik kadastr s'yomkalari ishlarini qiymatlari to'g'risida «O'zdavyergeodezkadastr» Davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2009-yil 12-iyundagi 621-sonli yo'riqnoma.
 24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.<http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-28-12-2018>.
 25. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017- yil 14-yanvar. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
 26. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.

27. Mirziyoev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. SH.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2016-yil 15-dekabr.
28. Rustamboev M.H., va boshkalar. “Yer xuquqi”. Darslik. Toshkent davlat yuridik instituti, 2002-y.
29. Bobojonov A.R., Nishonboev N.M., Nazarov B.R. Bino-inshoot davlat kadastrasi asoslari. O‘quv qo‘llanma T.,TAQI.- 2012. - 147 b.
30. S.Avezbaev, O.S.Avezbaev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2015 y.
31. E.YU. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
32. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: “Iqtisod moliya”, 2011.
33. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
34. E.Yu.Safarov, I.M.Musaev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2008-y.
35. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.
36. I.MassYer GIS Worlds:Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005.
37. Lillesand, T. M., and R. W. KiefYer, 1994. Remote Sensing and Image IntYerpretation. 3rd Edition, John Wiley and Sons, New York.
38. Samet H., The Design and Analysis of spatial data structures. AddisonWesley, 1994.
39. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar ro‘yxati va hisobi. Darslik. – T: Fan, 2019. – 552 b.
40. Juraqulov D.O. Yer huquqi va kadastrasi. Darslik. – T: “Lesson press”. Toshkent 2021. 436 bet.
41. Jurakulov D.O., Yarmatova D.S. Davlat yer kadastrasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Fan, 2019.-352 b.
42. Jurakulov D.O. Yer va binolar - inshootlar xuquqi.O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Fan, 2019.-304 b.
43. Juraqulov D.O. Binolar va inshootlar davlat kadastrasi.O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. “Lesson press”. 2020. 418 bet. .
44. Juraqulov D.O., Pirnazarov I.M., Niyazov V.R., Urakov O.A. «Kadastr xizmatidagi geodezik ishlar» O‘quv qo‘llanma.Toshkent. “Fan va texnologiya”. 2016.-292 b.
45. Ixlosov. I. Bino-inshoot kadastrasi fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2012.-256 b.
46. Jurakulov D.O., Burxonov T.S., Yarkulov Z.R. “Yer huquqi va kadastrasi” Ma’ruzalar matni: SamDAQI, № 7-8, 24.05.2019 y.
47. Jurakulov D.O., Yarkulov Z.R., Baxrinova M.X. “Binolar-inshootlar davlat kadastrini yuritish” Kurs ishini bajarish uchun. Uslubiy qo‘llanma. SamDAQI №2- 3 30.10.2019.Samarqand. 2019.160 b.
48. Jurakulov D.O., Umarov N.Sh., Yarkulov Z.R., Nishonov A. Uslubiy qo‘llanma: “Davlat yer kadastrasi” fanidan “Davlat yer kadastrini yuritish” Kurs ishini bajarish uchun. SamDAQI №2- 3 30.10.2019.Samarqand. 2019.152 b.

Internet saytlari

49. www.gov.uz. - O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti;

50. www.ziyonet.uz- Axborot ta'lim tarmog'i;
51. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi;
52. <http://www.Ziyo.net>
53. <https://t.me/axborotnoma> jurnali
54. <http://www.landkadast.com>
55. <http://www.gisinfo.ru/edu/edu.htm>
56. <http://www.esri.com/software/arcgis>
57. <http://gis-lab.info>
58. <http://www.geospatialworld.net>
59. <http://www.gisig.it/best-gis/Guides/main.htm>
60. <http://qgis.org>
61. <http://www.blumarblegeo.com/products/global-mappYer.php>
62. <https://doc.arcgis.com/>.

